

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEVA XALIMA MUXITDINOVNA

**ERKIN VOHIDOV SHE‘RIYATIDA MILLIY RUHNING POETIK
IFODASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yuldasheva Xalima Muxitdinovna

Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning poetik ifodasi.....3

Юлдашева Халима Мухитдиновна

Поэтическое изложение национального духа в поэзии Эркина Вахидова.....25

Yuldasheva Xalima Muxitdinovna

Poetic presentation of the national spirit in the poetry of Erkin Vakhidov.....51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEVA XALIMA MUXITDINOVNA

**ERKIN VOHIDOV SHE‘RIYATIDA MILLIY RUHNING POETIK
IFODASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

FARG‘ONA – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.2.PhD/Fil1754 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Solijonov Yo'ldoshxo'ja
filologiya fanlari doktori, professor

Hasanov Shavkat Axadovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona sh., Marg'inoniy ko'chasi, 105, Tel: (99873) 244-44-29; faks: (99873) 244-44-91; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona sh., Marg'inoniy ko'chasi, 105, Tel: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023- yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

Z.B.Qobilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotda, ayniqsa, uning faol turi bo'lgan she'riyatda milliy ruhning aks etishi doimiy e'tiborda bo'lgan masalalardandir. Chunki adabiyot millat va uning taqdiridan, umumbashariy ahamiyatga molik fikr va g'oyalar ifodasidan chetda bo'la olmaydi. Lirikada milliy ruh masalasi ijodkor qalb prizmasidan o'tgan holda namoyon bo'lgani bois ayni masalani muallif fenomeni bilan uzviy bog'liq holda tekshirish masalaning tub mohiyatiga yetish imkonini beradi. Natijada ijodkor laboratoriyasining o'ziga xos jihatlari oydinlasha boradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu mavzuning nechog'liq dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida milliy ruhning poetik ifodasi badiiy mazmun, shakl va obraz vositasida namoyon bo'lishi qonuniyatlariga alohida diqqat qaratilayotgani kuzatiladi. Bundan milliy ruhning o'ziga xos ifodasi ijod psixologiyasi, ijodkor dunyoqarashi va individual poetik tafakkuri bilan ham chambarchas bog'liq ekani ma'lum bo'ladi. Ushbu poetik hodisalarning o'zaro aloqadorligi omillarini aniqlash, shu jihatdan, ilmiy zarurat taqozosidir.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy ruhning millat axloqi, tabiati va dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishi, badiiy asarning estetik mohiyatini tashkil etishi yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilgan va izchil izlanishlar olib borilmoqda. Lekin ushbu ilmiy muammoni milliy adabiy-estetik tafakkurning ma'lum bir bosqichida yorqin iz qoldirgan ulug' ijodkorlar asarlari misolida konseptual asosda yoritish hanuz adabiyotshunoslikning kun tartibida turibdi. Globallashuv shiddati hamda yot g'oyalar xuruji kuchayib borayotgan bugungi kunda Erkin Vohidovday butun ijodiy faoliyatini ona Vatani va xalqining yorug' istiqboli, har tomonlama taraqqiy etishi yo'liga safarbar etgan shoir she'riyatida milliy ruhning poetik ifodasi masalasini tekshirish har qachongidan ham muhimdir. Chunki "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor" ekanini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Ushbu ilmiy muammoni Erkin Vohidovning poetik mazmun va shakl sohasidagi ijodiy kashfiyotlari, milliy ruhni badiiy obraz vositasida tasvirlash mahorati, poetik uslubni yangilash borasidagi izlanishlari kesimida baholash adabiyotshunoslikni yangi ilmiy qarashlar, konseptual fikrlar bilan boyitishiga ko'ra dolzarbdir. Shu boisdan ham hozirda mazkur mavzu keng aspektda o'rganilishi zarur. Bu zaruriyat masalaning ham ilmiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy-madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017- yil 24- maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017- yil 13- sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий юксалишининг мустақкам пойдеворидир //Халқ сўзи. 2017. 4 авг.

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2016-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasida hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida milliy xarakter va etika masalalari S.L.Xuako, Y.A.Pevak, F.S.Fazilova hamda O.A.Ivanova² tadqiqotlarida o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida Fitrat, Cho'lpon, Oybek va Izzat Sulton xarakter masalasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. A.Rahimov, U.Normatov, N.Karimov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, N.V.Vladimirova, M.Hoshimova, Y.Solijonov, N.Jabborov, D.Quronov, B.Karimov, A.Sabirdinov, G.Muhammadjonova kabi olimlar ishlarida mavzuga oid ilmiy qarashlar aks etgan³.

Adabiyotshunoslikda Erkin Vohidov ijodi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Shoir asarlari Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Abdug'afur Rasulov, Rahmatilla Inog'omov, Yo'ldosh Solijonov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Muhammadjon Imomnazarov, Nurboy Jabborov, Ulug'bek Hamdam, turk olimi Veli Savash Yelok⁴ tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan.

² Xuako С.Л. Нравственно-этическая проблематика и художественные искания адыгейской прозы 60-70-х и во второй половине XX века. Автореферат. Дисс. канд. филол. наук. – Майкоп: 1996. –С. 19; Певак Е.А. Нравственность и эстетика, творческая свобода, нравственный тоталитаризм, современная русская литература. –Ломоносов, Москва. 2021.–С.108-114, Русская литература первой половины XX века: (Горький М, Бунин И, Блок А, Есенин С, Маяковский В, Ахматова А, Пастернак Б,). -Москва.УМЦ ДО. 2004.–С. 21; Фазылова Ф.С. Нравственно-этические проблемы в башкирской поэзии 70-80-х годов XX века. Автореф.дисс...кандидата филологических наук: –Уфа. 2013.–С.21; Иванова О.А. Черты национального характера в образе главного героя романа Э.Ажара. «Вся жизнь впереди». Чита. 2006.

³ Фитрат. Сайланма. – Т.: Маънавият, 2006; Чўлпон. Сайланма. Тўрт жидлик. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2016; Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980; Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 19 томлик. 14-том. – Т.: Фан, 1974; Раҳимов А. Миллий адабиётлар равнақи. -Т.: ЎзФА нашриёти, 1981; Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. – Т.: Турон zamin ziyo, 2015; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2006; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. -Т.: Ёш гвардия, 1985; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: фил. фан. док. дисс. -Т., 2002; Ҳошимова М. Куй авжида узилмасин тор (Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижодига чизгилар). – Т.: Фан, 2006; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. –Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Т.: Fan, 2007; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. -Т.: Фан, 2006; Сабирдинов А.Ф. Ойбекнинг поэтик маҳорати: фил. фан. док. дисс. – Т., 2007.

⁴Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Т.: Шарқ, 2004; Талант ва масъулият. /Сўз сеҳри (Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижодига чизгилар). - Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2006. Норматов У. Халқ қалбига кўчган шеърият. – Т.: Маънавият, 2016; Расулов А. Шеър қолур, шоир қолур. /Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007; Иноғомов Р. Шоир бўлиш осон эмас. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996; Йўлдошев Қ, Беором юрак зарблари./ Сўз ёлқини. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2018; Имомназаров М. Шоир сўзининг латофати ва қадри. – Т.: Мумтоз сўз, 2016; Жабборов Н. Миллий руҳнинг бетакрор ифодаси. /“Эркин Воҳидов

Shoir ijodi bo'yicha bir qancha dissertatsiyalar himoya qilingan⁵. O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, I.G'afurov, Y.Solijonov ilmiy risolalarida badiiy asarning asosiy g'oyasini yorituvchi vositalardan biri tarzida qahramon va u orqali jamiyat tasvirini ishonarli aks ettiruvchi badiiy shakl holida har bir xalq milliy mentalitetidan kelib chiqib o'rganilgan. Xususan, adabiyotshunos G.Imomova tadqiqotida badiiy nutqning milliy xarakter yaratishdagi ahamiyati, G.Sattorovning dissertatsiyasida esa 90-yillar o'zbek hikoyachiligidagi milliy xarakter, Sh.Doniyarovning doktorlik ishida o'zbek romanlarida milliy ruh masalasi tadqiq etilgan. G.Muhammadjonova shoir fenomeni, shaxsi va asarlari badiiyatini tahlilga tortgan bo'lsa, turk olimi Veli Savash Yelok, asosan, Erkin Vohidov she'riyatining leksik jihatiga, ijtimoiy va siyosiy voqelikka munosabatini bildirishda zid ma'nolilikka, so'zlar chastotasiga tadqiqot obyekti sifatida qaraydi. Milliy xarakter tadqiqiga bag'ishlangan yuqoridagi dissertatsion ishlarda masalaga turli jihatlardan yondashilgan. Ularda milliy xarakter yaratishning rang-barang usullari o'rganilgan. Biroq N.Jabborovning "Milliy ruhning betakror ifodasi" sarlavhali maqolasini istisno qilganda, milliy ruhning poetik ifodasi jihatdan Erkin Vohidov she'riyati misolida alohida monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

ижодининг маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти" мавзuidaги Республика илмий анжумани материаллари. – Т., 2017; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. –Т.: Адиб, 2012; Вели Саваш Йелок, Гўзалхон Муҳаммаджонова. Шеърият шукуҳи. - Фарғона, 2020. Раҳимжонов Н. Бедорлик саодати. /Инсон ўзинг. -Т.: Ўзбекистон. 2022. Ғафуров И. Биз Эркин Воҳидов ижодини нега севамиз. /Инсон ўзинг. -Т.: Ўзбекистон. 2022. Ғафуров И. Донишманд шоир. /Инсон ўзинг. -Т.: Ўзбекистон. 2022. Ғафуров И. Юлдуз шуъласи. Т.: Ўзбекистон. 2022; Солижонов Й. "Кимда иқтидор йўқдир..". /Инсон ўзинг. -Т. Ўзбекистон. - 2022. Каримов Н. Эркин Воҳидов ва Абдулла Ориповнинг Берлиндаги ижодий кечаси. /Инсон ўзинг. -Т.: Ўзбекистон. 2022; Солижонов Й. Мўминов С. Эркин ўғлингман, Ватан!.. - Фарғона. 2016.

⁵⁵ Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеърияти мисолида): фил. фан. номз.... дисс. – Т., 2000. Мақсумова С. Эркин Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: фил. фан. номз.... дисс. –Т., 2012. Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: фил. фан. д-ри... дисс... автореф. – Тошкент, 1996. Хўжамбердиева Ш.К. Таълим босқичларида Эркин Воҳидов ижоди ва ҳаётини ўқитиш усуллари: : фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019. Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси: фил. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Ҳамдамова С.Х. Фольклор аънавалари ва бадий талқин: таъсир ҳамда акс таъсир масалалари (XVIII-XIX аср шеърияти мисолида): фил. фан. номз.... дисс. – Т., 2012; Акрамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е-80-е годы): автореферат дисс... докт. филол. наук. – Т., 1991; Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: филол.фан.номз... дисс. -Т., 1995; Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва шаклий изланишлар: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. –Т., 2018; Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Т., 2018; Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: фил. фан. номз.... дисс.... – Т., 1993; Сатторова Г. 90-йиллар ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: фил. фан. номз.... дисс. – Т., 2002; Дониёрова Ш. Истиқлол даври романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси: фил.фан. д-ри... дисс. - Т., 2018. Абдулҳакимова О.Н. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини: фил. фан. д-ри.. дисс. - Т., 1994. Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида фольклор аънавалари ва бадий маҳорат: фил.. фан. номз. ... дисс. – Т., 2011. Ўсарова Л.И. Абдулла Орипов шеъриятида миллий руҳ ифодаси: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Т., 2020. Қосимов Я. Ўзбек шеъриятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни: фил.фан.номз...дисс.-Т.,1993; Қурбонбоев И.А. 90-йилларўзбек шеъриятида образлик:фил.фан.номз...дисс. - Т., 2005. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: фил.фан.докт... дисс. - Т., 2018.

huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning mazmun va shakl, obraz va uslub vositasida poetik ifodalanishi xususiyatlarini aniqlash, ijodkor badiiy tafakkurida namoyon bo'lishiga xos adabiy-estetik qonuniyatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shoir she'riyati misolida poetik mazmun va milliy ruh ifodasining bir-birini taqozo etishiga xos adabiy-estetik omillarni aniqlash;

ijodkor lirik asarlari misolida milliy ruh talqinida poetik shaklning vazifasini oydinlashtirish;

Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning poetik obrazda voqelanishiga xos adabiy-estetik qonuniyatlarni ochib berish;

shoir she'riyatida Vatan va xalq obrazining badiiy ifodasi xususiyatlarini yoritish;

o'zbek ruhiyati ifodasida xalq tili va mumtoz ifoda usulining o'rnini belgilash.

Tadqiqotning obyektini Erkin Vohidovning "Tanlangan asarlar"ida jamlangan she'riy asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Erkin Vohidovning lirik asarlari asosida poetik mazmun va milliy ruh ifodasi o'rtasidagi uyg'unlik, milliy ruh talqinida poetik shakl va obrazning vazifasi, ayni muammoning Vatan va xalq obrazlarida aks etishi, o'zbek ruhiyatining xalqona va mumtoz ifoda usullarida namoyon bo'lishi qonuniyatlari kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, analitik, biografik va psixoanaliz usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Erkin Vohidov she'riyatida poetik mazmun va milliylik o'rtasidagi uyg'unlik milliy ruhning urf-odat, an'ana va qadriyatlar vositasida, millatning o'z-o'ziga baho berish salohiyati orqali hamda milliy shaxsiyatning badiiy suvratlanishi timsolidagi ifodasi tarzida uch nazariy asosga tayanishi aniqlangan;

shoir lirikasida milliylik o'ziga xos aks etgani ijodkorning milliy ruh ifodasida mumtoz she'riyatning yetakchi tizimi bo'lgan aruzdan, g'azal, qasida, muxammas kabi mumtoz poetik janrlar imkoniyatlaridan mohirona foydalangani, ushbu janrlarga novatorona yondashib, ularni grafik jihatdan yangicha shakllantira bilgani, tatabbu va tazmin vositasida salaflar ijodiy tajribalari poetik umumlashtirilgani singari tamoyillar orqali isbotlangan;

ijodkor she'riyatida milliy ruhning poetik voqelanishida inson, do'st, otana, bola kabi obrazlar yetakchi xususiyatga ega ekani, bu obrazlarda o'zbek ruhiyati milliy va umumbashariy g'oyalar uyg'unligida ifodalangani, Vatan va xalq obrazlari esa an'ana va yangilik sintezi zamiriga qurilib, badiiy qudrat va takomilga erishgani nazariy asoslangan;

o'zbek ruhiyati ifodasida xalqona uslubning ahamiyati vazn, til, shakl orqali, shuningdek, mutoyiba, maqol, hikmat singari kichik janrlar kontekstida aniqlangan hamda milliy ruh suvratlanishida mumtoz poetik ifoda usulining o'rni esa mazmuni didaktika asosiga qurish, an'anaviy obrazga yangicha ma'no yuklash, fikrni badiiy san'atlar bilan ziynatlash kabi Erkin Vohidov ijodiga xos usullar vositasida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

shoir ijodida poetik mazmun va badiiy talqin uyg'un aks etgani, estetik ideali – o'z millatini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasida, avlodni barkamol ko'rish orzusi ifodalangani aniqlangan;

milliy ruhni saqlash uchun shoir asarlarini uch muhim mezon: o'zga tillarga tarjima etilganda “o'zni unutmaslik”, muallifning “o'z she'ri bo'lib qolish” hamda “o'zga ruhga berilib ketmaslik” talablari asosida yozgani dalillangan;

mumtoz she'riyat haqida tahliliy maqolalar yozgani, salafлари qo'llagan obrazlarni zamonasiga xos yangi mazmun va yangicha talqinlar bilan boyitgani, Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk shoirlar g'azallariga mahorat bilan muxammaslar bog'lagani milliy ruh ifodasining asosi ekani isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallar ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Erkin Vohidov she'riyatiga oid tadqiqotlarda erishilgan nazariy qarashlarni yangilashi va to'ldirishi, milliy ruh ifodasida poetik mazmun, shakl va obrazning o'rni hamda badiiy-estetik vazifasiga doir ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy o'zbek she'riyatining nazariy asoslari hamda milliy ruh va poetik tasvir mutanosibligiga doir ilmiy tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o'quv yurtlarining “Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)” ta'lim yo'nalishida “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O'zbek adabiy tanqidi tarixi” kabi fanlardan ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin Vohidov shariyatida milliy ruhning badiiy tasviri tadqiq bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Erkin Vohidov she'riyatida poetik mazmun va milliylik uyg'unligi milliy ruhning urf-odat, an'ana va qadriyatlar vositasida, millatning o'z-o'ziga baho berish salohiyati orqali hamda milliy shaxsiyatning badiiy suvratlanishi kabi nazariy asoslarga tayanishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O'zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe'l-atvori

tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 30-noyabrdagi 04/1-3237-son ma'lumotnomasi). Natijada Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning poetik voqelanishida inson, do'st, ota-ona, bola kabi obrazlar yetakchi xususiyatga ega ekani, ularda o'zbek ruhiyati milliy va umumbashariy g'oyalar mutanosibligida ifodalangani, Vatan va xalq obrazlari esa an'ana va yangilik sintezi zamirida takomilga erishganiga doir tahliliy fikrlar bilan boyitilgan;

Erkin Vohidov lirik asarlari misolida zamonaviy o'zbek she'riyatining nazariy asoslari hamda milliy ruh va poetik tasvir mutanosibligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutida 2020-2022- yillarda bajarilgan -ECAGD-18-CF-0067 (PO20002335) raqamli "FY 2018 English Access Microscholarship Program" nomli Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2022-yil 23-noyabrdagi 04/1-803-son ma'lumotnomasi). Natijada Erkin Vohidov she'riyati misolida o'zbek ruhiyati ifodasida xalqona uslubning ahamiyati vazn, til, shakl orqali, shuningdek, mutoyiba, maqol, hikmat singari kichik janrlar kontekstida aniqlanganiga doir fikrlar yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini bergan;

Erkin Vohidov milliy ruh ifodasida mumtoz she'riyatning yetakchi tizimi bo'lgan aruzdan, g'azal, qasida, muxammas kabi mumtoz poetik janrlardan mohirona foydalangani, Vatan va xalq obrazlari esa an'ana va yangilik sintezi zamiriga qurilib, badiiy qudrat va takomilga erishgani bilan bog'liq yangi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali "Mavzu" "Taqdimot" va "Aslida qanday...?" nomli ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2020-yil 6-dekabrda 06-28-2003-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuvlar Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh ifodasiga doir asosli ilmiy faktlar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi: tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan tashkil topgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissetatsiyaning birinchi bobi **Poetik mazmun va shaklning milliy ruh talqinidagi o'rni** deb nomlanib, birinchi faslda, **“Poetik mazmun va milliy ruh ifodasi munosabati”** masalasi o'rganiladi. Poetik mazmunga singdirilgan milliy ruh ifodasi – milliy adabiyotning asosi. Shu jihatdan Vohidov she'riyatida milliylik masalasini quyidagicha tasniflagan holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir:

1. *Urf-odat, an'ana va qadriyatlar vositasida milliylikning ifodalanishi.* Badiiy asarning yashovchanlik xususiyati unda ifodalangan poetik mazmunga bog'liq. Chunki “Milliy o'ziga xoslik milliy tematika, milliy xarakter va uni shakllantirish vositalarini o'z ichiga oladi”⁶. Adabiyotning asosi bo'lgan badiiy obraz Erkin Vohidov ijodida chinakam milliy ruh va shaklda namoyon bo'ladi. “Kuzatish” she'rida ijodkor o'z asarlariga go'yo farzandiga nasihat qilayotgan ota obrazida namoyon bo'ladi, ularni “yolg'ondan yiroq, ziynatga ko'mmay, samimiyatga oshno” qilganini badiiy mukammal satrlarda ifodalaydi va milliy tarbiyaning betakror qirralarini mazmunga o'ziga xos tarzda singdirib yuboradi .

2. *Millatning o'z-o'ziga baho berish salohiyati orqali milliylikning ifodalanishi.* Erkin Vohidov she'riyatida mazmunga milliy ruhni singdirishning o'ziga xos usullaridan biri – aytilmoqchi bo'lgan fikrni aks ta'sir usulida berish (“Manfaat falsafasi”, “Hozirgi yoshlar”, “Sen menga tegma”, “Majlis qiling”). Adabiy asarlarda milliy ruh masalasi millat adabiyotining yashovchanligini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanib, busiz har qanday ijodkor o'zi mansub bo'lgan xalq ma'naviyatini, o'zligini to'laligicha ifodalay olmaydi. Erkin Vohidov she'riyati boshdan-oyoq “o'zbekcha kiyingan” she'riyatdir: ular qaysi tilda jaranglamasin, o'zi bilan millat ruhini ham olib yuradi. Shoir manzumalarini o'qib-o'rganish insonni ruhan quvvatlantiradi, e'tiqod mustahkam shaxsni – millat kishisini tarbiyalaydi, hayotga teran ko'z bilan boqishga undaydi.

3. *Milliy shaxsiyatning poetik suvratlanishi.* Millat ruhini mukammal aks ettirish uchun, avvalo, shoir shaxsida milliy qarashlar yuksak darajada shakllangan bo'lmog'i zarur. Erkin Vohidov shaxs sifatida ham, shoir sifatida ham o'zbekka xos barcha fazilatlarini o'zida mujassam etgan ijodkor. U o'zi chuqur his etgan, ko'ngil ko'zgidan o'tkazgan tuyg'ularnigina qalamga oladi va bu jarayonda mumtoz adabiyot an'analaridan unumli foydalanadi. Jumladan, “Boshindadir” she'ri g'azal janrida bo'lib, Alisher Navoiyning mashhur “O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadir...” deb boshlanuvchi g'azaliga tazmin qilingan. Buyuk salafidan farqli ravishda Erkin Vohidov g'azali hajviy ruhda. Lirik qahramon – Ota o'zi sezmagani holda “boshga chiqarib olgan” o'g'ilning o'n sakkiz yoshda ham undan tushishni xayoliga keltirmayotgani tasvirini berar ekan, bu orqali shoir millat taqdirida tarbiyaning o'rniga alohida e'tibor qaratadi.

Erkin Vohidovning 6+5 turoqda bitilgan “Zamona zayli” she'ri *abab* tarzida qofiyalangan. Ushbu poetik shakl va unga mutanosib mazmun vositasida shoir bir paytlar zo'r kitobxon bo'lgan millat farzandlarining bugungi ahvolidan qattiq iztirob chekadi va ilm-ma'rifat sari intilishga, olimu fozillar yurtida tug'ilib, butun

⁶Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. -Т.:Янгиасравлоди.2011. - Б.450

olamni lol qilgan Buxoriylar, Ibn Sinolar, Xorazmiylar izlarini bosuvchi millat bo'lishga undaydi: *O'g'lim oshno bo'ldi "Boni-Em" bilan, Ranjidim, maqomni tinglamaydi, deb. Endi xafa bo'lar o'g'lim o'g'lidan, Nodon "Boni-Em"ni anglamaydi, deb.* Shoir aytmoqchi, "Boni-Em"ni anglash zarurati, chet tillarni bilish ehtiyoji oshib bormoqda. Biroq bu milliy madaniyatimiz durdonalari bo'lgan mumtoz maqomlarni, ularning asosi sanalgan g'azallarni unutish hisobiga bo'lmasligi zarur. Mumtoz maqomlar – inson ruhiyatini poklovchi beqiyos omil. Erkin Vohidov she'riyatida mumtoz adabiyotning ulkan ta'siri sezilad. Bu, avvalo, shoirning ustozlardan olgan saboqlari samarasidir. Qolaversa, milliyat masalasida shoirning o'z zamondoshlari bilan ham maslakdoshligi ko'rinadi. Abdulla Oripov bilan bir zamonda yashab, hamnafas bo'lgan Erkin Vohidov she'rlarida millat va jamiyat ravnaqiga to'siq bo'layotgan illatlar ayovsiz tanqid qilingan. Har ikki shoir odamzodga xos his-tuyg'ular, shodlik va qayg'ular, dunyo mojarosi begona bo'lgan "temirtan daholar"ga achinish hissi bilan qaraydi. Ular ijodidagi ikki she'rda, ayniqsa, shakliy mutanomiblik kuzatiladi. Shakl – to'rtlik. Biroq ularning ikkalasida misralar "sindirilgan". Shoir bu orqali ma'noning yanada kuchayishiga, mazmunning teranlashuviga erishadi. Erkin Vohidov she'riyatida, qay bir mavzu talqin etilmasin, milliy ruh ifodasi yetakchilik qiladi. Millat ruhini mujassam etgan azaliy urf-udumlar, xayrli an'analar, bebaho qadriyatlar shoir lirik asarlarida o'ziga xos ifodalangan. Millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati butun ko'lami bilan talqin qilingan. Bunda poetik mazmun va shaklning mukammal uyg'unligiga erishilgani shoirning yuksak mahorati natijasidir.

Milliy ruh talqinida poetik shaklning vazifasi deb nomlangan ikkinchi faslda esa shaklning milliylikni ifodalashdagi ahamiyati tadqiq qilinadi. She'riyat mazmunni ma'lum bir poetik shakllar asosida ifodalashi jihatidan adabiyotning boshqa turlaridan farq qiladi. Muallif badiiy maqsadini ifodalash uchun o'ziga xos shakl tanlaydi yoxud shakl yaratadi. "Adabiy asarning mazmuni uning mohiyati, shaklini esa mohiyatning namoyon bo'lish tarzi sifatida ham tushuntirish mumkin. Boshqacha aytganda, mazmun – ijodkorning ochun haqidagi o'ylari, voqelikdagi biror hodisaga fikriy va hissiy munosabati. Shakl esa ana shu munosabatning ifodalanish tizimi va yo'sinidir. Bundan ham jo'nroq ifodalansa: mazmun – bu yozuvchining nima degani bo'lsa, shakl uning qanday deganidir"⁷. Shoir ijodida milliy ruhni ifodalagan poetik shaklni ikkiga ajratish mumkin:

- An'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodisasi;
- Shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishi;

An'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodisasi. Erkin Vohidov ijodida shaklning an'anaviyligi zamirida badiiyatdagi novatorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir shakllarga milliy ohanglarni, til va uslubni singdirib, badiiyatni kuchaytiradi. O'zbek adabiyoti ijodiy an'ana va uning muttasil yangilanishi hisobiga poetik takomilga erishib kelayotgani ayon. Mumtoz she'riyat an'analarining munosib davom ettirilishi, birinchidan, millat badiiy-estetik tafakkurini muntazam ravishda yuksaltirish imkonini bersa, ikkinchidan, ijodkorlarning yangi yetuk avlodlari yetishmog'ini ta'minlaydi. Shoir lirikaga

⁷ Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. –Б.123.

milliy ruhni singdirishda mumtoz she'riyatimizning yetakchi tizimi bo'lgan aruzdan mohirona foydalandi, tatabbu va tazmin vositasida salaflar ijodiy tajribalarini poetik sintez qildi. Milliy she'riyatimizni yangidan yangi shakllar bilan boyitdi. Ijodkor rango-rang poetik shakl va mazmuni mushtarak unsur sifatida badiiy bog'liqlikda ifoda eta oldi.

Inson ruhiyati manzaralarini ijodiy tadqiq etish jarayonida shoir mumtoz adabiyot an'analaridan samarali foydalandi. Mumtoz janrlardan g'azal, qasida va muxammas XX asr adabiyotida, xususan, Erkin Vohidov ijodida o'zining munosib o'rniga ko'tarildi. Shoir, ayniqsa, uyg'onish davrining yetakchi janri bo'lgan g'azalga zamonaviy, jilodor ohang berib, mavzu doirasini kengaytirdi, falsafiylik va milliy ruh ifodasini chuqurlashtirib, badiiy teranlik bilan qalam surdi, vohidovona originallik va badiiy joziba bilan boyitdi.

Shoirning ba'zi she'rlarida uning shakl va mazmun haqidagi qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi: *Aruziy barmoqni To'pori, deydi, Sen pastsan, men sendan – Yuqori, deydi. Barmoq uni ko'hna – Xarobasan, der, Parvozlar asrida Arobasan der.* Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda shoir ikki obrazni bahsga kirishtirish orqali, aslida, ularning qadim tarixi borligi bilan bog'liq adabiy-estetik qarashlarini "ma'noning zid mazmunidan" foydalangan holda o'ziga xos talqin etadi.

Shakllarning an'anaviyligidan novatorona foydalanish, yangi shakllar ifodasida ham milliy mazmuni saqlab qola bilish Erkin Vohidov she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan. Ayni shu xususiyatlarga ko'ra uning she'riyatida an'ana va yangilik sintezlashadi. Shunga ko'ra, Ulug'bek Hamdam shoir ijodini *intellektual she'riyat* namunasi sifatida baholaydi. Haqiqatan, shoir ijodidagi an'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodisasi qaysidir ma'noda **shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishiga** zamin tayyorladi. 60-yillarda yaratilgan "Bosh tebratar soat kafgiri", "Bong uring" kabi she'rlarda ayni shu holat, shakllarga yangicha yondashuv kuzatiladi.

Erkin Vohidov mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish barobarida, mumtoz janrlarni **grafik** jihatdan yangicha shakllantirish orqali yangilik qilishga intiladi. Mumtoz adabiyotdagi an'anaviy shaklga ega bo'lgan g'azal janrini grafik jihatdan yangilaydi. Uning shakliy tuzilishida milliy uyg'onish davri an'alarini davom ettiradi. Jadid she'riyatidagi g'azalni bandli tizimga solish an'nasi shoir ijodida davom ettirildi. Zero: "U yoki bu shoirning chinakam iqtidori, salohiyatiga baho berilar ekan, avvalo, nima(lar)ni tasvirlashi emas, qanday shakllarda ifodalashiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas"⁸. Mumtoz adabiyotga yondashuv, undagi mazmun-mohiyat an'anaviy xarakterga ega bo'lishi barobarida, shoir milliy ruhiyatni ham o'zida badiiy jihatdan mukammal tarzda aks ettiradi. Shaklni esa barmoq vaznidagi bandli tizimga moslaydi.

Ikkinchi bob: **"Milliy ruhning obraz vositasida ifodalanishi"** deb nomlanib, **"Ijodkor lirikasidagi milliy ruhni ifodalagan yetakchi obrazlar"** masalasini tadqiq qilish bilan boshlanadi. Milliy ruh ifodasida poetik obraz tasviri alohida o'ringa ega. Chunki adabiyotni, ayniqsa, uning eng faol va tez yangilanish xususiyatiga ega turi bo'lgan she'riyatni obrazdan, obrazli tafakkurdan ayri

⁸Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеърлятида поэтик мазмун ва шаклий изланишлар. -Т., 2018. -Б.121.

tasavvur etib bo‘lmaydi. Muallif milliy ruhni poetik obraz zamiriga singdirar ekan, bunda o‘z-o‘zidan xalqning an‘analariga, qadriyatlariga, muqaddas deb bilgan tushunchalariga murojaat etadi. Ammo obrazning chinakam qudrati milliy xarakter vositasida umumbashariy mohiyatni ham anglata bilishida namoyon bo‘ladi. Erkin Vohidov ijodidagi obrazlar, shubhasiz, ayni shunday kuchga ega. Ular sof o‘zbekona obrazlar, ularda millatning ruhiyati, millatning nafasi aniq bo‘y ko‘rsatib turadi.

Shoir ijodida milliy ruhning poetik voqelanishida yetakchi xususiyatga ega obrazlar quyidagicha tasnif etish mumkin:

➤ Inson obrazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	“Inson” qasidasi, “Arslon o‘rgatuvchi”, “Bu qo‘llar”;
➤ Do‘st obrazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	“Do‘stlarga maktub”, “Iltijo”, “Yolg‘izlik istagi”, “Do‘stlaring bo‘lsin”;
➤ Ota-ona obrazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	“Sharq ertagi”, “Ota tilagi”, “Kelajakka maktub”, “Nido”, “Ona tuproq”, “Kelajakka maktub”, “Sirdaryo o‘lani”;
➤ Bola obrazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi.	“Shum bola”, “Bolalik”, “Tasavvur”, “Bolalar”, “Bir yolg‘onda qirq yolg‘on”, “Kunlar sekin o‘tadi”, “Nido”, “Tasavvur”, “Tabiat va qizaloq”.

Bu obrazlarda milliy ruh, o‘zbekona nafas yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, uning birgina *Inson obrazi* ham milliy, ham umumbashariy kuchga ega ekanligi bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega. Adabiyotda inson obrazi haqida so‘z ketganda har bir she‘riyat ixlosmandining ko‘z o‘ngidan, eng avvalo, shoirning “Inson qasidasi” o‘tadi. Bu qasidadagi Inson obrazini hech ikkilanmay ham milliy, ham umumbashariy xarakterga ega obraz sifatida baholashimiz mumkin. Shoir ijodida inson obrazi to‘laligicha milliy koloritni o‘zida aks ettirishga xizmat qiladi.

Ijodkor she‘riyatida “...insonning ma‘naviy-intellektual kamolotiga alohida urg‘u beriladi. Shoirning nuqtai nazariga ko‘ra, inson tiriklikning ma‘nosi, hayotning mazmuni qanday sharoitda va muhitda bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘z shaxsida komillik xislat-xususiyatlarini muttasil takomillashtirishga intilishdan iborat”⁹. Erkin Vohidov ijodida *Do‘st obrazi* alohida ahamiyatga molik va tom ma‘noda milliy xarakter tashiydi. Shoirning qator she‘rlarida do‘stlik, sadoqat, xiyonat haqidagi qarashlar o‘zbek millati xarakteri yorqin ifodalangani jihatidan ham qimmatlidir. “Do‘stlarga maktub”, “Iltijo”, “Yolg‘izlik istagi”, “Do‘stlik

⁹Раҳимжонов Н. Эркин Воҳидовнинг адабий-эстетик қарашларига доир. То қуёш сочгайки нур. -Т.Ўзбекистон. 2016.- Б.471.

sharti” kabi qator she’rlarida teran falsafiy mushohadalarini milliy ruh va go’zal badiiyat uyg’unligida ifoda etadi.

Erkin Vohidov ijodida milliy ruhning poetik obraz orqali ifodalanishida *ota-ona obrazi* alohida ahamiyatga ega. Bu obrazlar tom ma’noda o’zbek ota-onasi timsolidir. Ularda o’zbek xalqining milliy tabiati aks etadi. Ota va ona obrazi shoir ijodida yuksak badiiy talqin etilgan. “Nido” dostoni bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Dostonda *ona obrazi* umrini farzandlariga bag’ishlagan munis o’zbek ayoli qiyofasi tasvirlanib, shoir muhabbat, mehr, sadoqat haqidagi qarashlarini ayni shu obraz zamiriga singdiradi. Onaning farzandiga aytgan: *Qosh-ko’zlaring otangga o’xshar, O’xshamasin umring iloyim; Orom ol, men senga Allalar aytay. Tongda peshonangdan O’pib uyg’otay* tarzidagi izhori o’quvchi ko’z o’ngida erta tongda farzandlarini peshonasidan o’pib uyg’otadigan ona obrazini suvratlantiradi. U o’zbek onasining umumlashma obrazidir.

Dostonda *ota obrazi* o’ziga xos tasvirlangan va biror o’rinda so’zlamaydi. Lekin bu obraz asarning boshidan oxiriga qadar asosiy ruhiyatni ifoda etadi, mardlik, vatanparvarlik va odamiylik timsoli sifatida namoyon bo’ladi. Shoir ijodidagi ota va ona obrazi o’zbek adabiyotidagi tamomila yangi, faqatgina Erkin Vohidov uchun xos bo’lgan obrazlar sirasidandir. Jumladan, “Sharq ertagi” she’rida farzandiga ertak aytayotgan ona aslan o’zbek onalarining tipik qiyofasini ifoda etadi. She’rda uzun kechalarda farzandiga alla aytgan onalar siyrati tasvirlanadi: “Men ertak so’ylayin, shirin tushlar ko’rib, Sen, dilbandim, orom ol bir zum” ifodasi “Nido” dostonidagi ona obrazini ham yodga soladi. Go’yo bu asarda onaning dostonida aytilmay qolgan so’zlari mantiqan davom etgandek tuyuladi. Erkin Vohidov ijodida *ona sadoqat, bardosh, mehr-muhabbat* timsoli bo’lib, o’zbekning tabiatini mujassam etsa, *ota obrazi* esa *mardlik, jasorat, odamiylik, halollik* timsolidir.

Shoir ijodida obrazlar vositasida milliylikning aks etishi “*ota, ona, bola*” uchligi bilan chambarchas bog’liq. Shoir nazdida, bolalar millatning o’zligini namoyon etuvchi ertaning egalaridir. Ularni g’ururli, or-nomusli, mard va jasur qilib tarbiyalash har bir ota-onaning vazifasidir. Jamiyatdagi illatning bola obrazida aks etishi jihatidan shoirning “Shum bola” she’ri nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Umuman, Erkin Vohidov ijodidagi *Bola, Inson, Ota-ona, Do’st* kabi obrazlar tom ma’nodagi milliy xarakterga, milliy qiyofaga ega bo’lgan obrazlar sirasidan bo’lib, ular shoirning Vatan va millat taqdiriga munosabatini, muhabbatini namoyon etadi.

Ikkinchi faslda “**Milliy ruhning Vatan va xalq obrazlarida aks etishi**” masalasi o’rganilgan. Erkin Vohidov she’riyatidagi Vatan va Xalq obrazlari tipik qiyofaga ega. Ularda millatning qiyofasi, orzu-umidlari, armonlari aks etadi. Bu obrazlar o’zbek yoshlarini, keksalarini – butun millat qiyofasini ochib beradi. Zero, adabiyotdagi eng o’lmas mavzulardan biri Vatan mavzusidir. Bu mavzu necha asrlik takomil bosqichlariga ega. Adabiyotshunos Ulug’bek Hamdam ayni shu mavzuning taraqqiy bosqichi haqida mana bunday yozadi: “Cho’lpon yuragi o’rtanib va yuraklarni o’rtatib kuylagan, Oybek va Hamid Olimjonda yuksak pafos

bilan tarannum etilgan Vatan mavzusidagi she'rlar zanjirini olaylik. Axir, Abdulla Oripovning «O'zbekiston» yoki Erkin Vohidovning «O'zbekim» singari o'zligimiz, yurtimiz haqidagi yuksak taronalar aynan yuqoridagi an'analarning davomi sifatida dunyoga kelgan. Chunki she'riyatda «Vatan» mavzusi o'z-o'zidan bino bo'lgan emas, balki badiiy tafakkur tarzida sodir bo'lgan muayyan harakat-o'zgarishning mahsuli bo'lib tug'ilgan. Insonning o'zi yashab turgan makonni Vatan darajasida anglashi uchun ham u ana shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo'lishi zarur»¹⁰. Olim bir qancha she'rlar qatorida Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasini alohida ta'kidlamogda va bu she'ni badiiy tafakkurdagi o'zgarish natijasi sifatida baholamoqda. Haqiqatan, ushbu lirik asarda tamomila yangi nafas, yangi ruh seziladi, chinakam o'zbekning, millatning qiyofasi badiiy aks ettiriladi.

Shoir ijodida Vatan va millat obrazi doim yonma-yon keladi. Bunday she'rlarda ijodkor she'riyatining badiiyatini qaysidir ma'noda tanlangan obraz, uslub, til va mavzu ham ta'minlab beradi. «Beqasam» she'rida ayni shu jihatlar betakror ifodalangan: *Askar shinel kiyar ichganda qasam, Qishlog'iga qaytib kiyar beqasam. Ona yurtga qasam ichgan u kunni Unutmas kiyganda beqasam to'nni.* She'rdagi «qasam» va «beqasam» so'zlarining qofiya sifatida tanlanishi shoirning so'z qo'llash mahoratini ko'rsatsa, yurtga qaytib beqasam kiyganida ichgan qasamni unutmaslik ifodasida esa millatning, uning o'g'lonlarining va umumlashma obraz sifatida butun xalqning sifatini ko'rsatib beradi, millat ruhiyatini akslantiradi.

Erkin Vohidov vatan mavzusini takrir, talmeh san'atidan foydalangan holda betakror misralarda ochib beradi. Ijodkor mumtoz she'riy san'at vositasida qaysidir ma'noda Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy kabi ijodkorlarning Vatan haqidagi qarashlarini aks ettiradi.

So'nggi **«Milliy ruh talqinida xalq tili va mumtoz poetik ifodaning estetik vazifasi»** nomli bobning birinchi faslida **«O'zbek ruhiyati ifodasida xalq tilining ahamiyati»** masalasi tadqiq etiladi. Xalqona uslub millat ruhiyatini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu uslub, birinchidan, poetik mazmunning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'sha mazmunning yengil, xalqona ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Eng avvalo, Erkin Vohidov ijodida xalqona uslubni hosil qiluvchi jihatlarni quyidagicha tasniflash mumkin: Vazn, Til, Shakl, Badiiy vositalar (mutoyiba, maqol, hikmat va h.z).

Adabiyot bu muammolarni hal etishda ba'zan o'tkir kulgi – satira yo'lidan borib, ba'zan yengil mutoyiba – yumor orqali ta'sir qiladi. Hajviyot jamiyatni isloh qilishda, qadriyatlarimizni saqlashda milliy munosabatlarning muhim xususiyatidir. O'zbek xalqi – zarif tabiatli, o'tkir zakovatli, hazilga o'ch xalq. Xalq og'zaki ijodida ham hajviy yo'nalishga katta e'tibor berilgani sababi shunda. Zero, kulgi ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lib, xalqimiz yaratgan og'zaki adabiyot namunalarida kulgining inson aqli va ruhiga quvvat berishi o'z isbotini topgan. Shoirning «Donishqishloq latifalari» turkumi o'zbek hajviy she'riyati takomilida alohida o'rin tutadi. Ijodkor o'zbek xalqiga o'zining ajoyib tabiatini ko'rsatib,

¹⁰Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърляти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. –Т.: Янги аср авлоди, 2002. - Б. 62.

nafaqat samimiy kulgi uygʻotadi, balki zukko kitobxonni millatning bebaho xazinasini yoʻqotib qoʻyish xavfi turgan bir kezda uning taqdiri haqida oʻylashga undaydi. Adabiyotshunos Nurboy Jabborovning: “Matmusa timsolida Erkin Vohidov millatga oyna tutib, oʻzligini anglashga chaqirgan”¹¹, deya taʼkidlashi sababi shunda. Oʻquvchi dastlab Matmusaning devonalarcha qilgan qiliqlaridan qah-qah urib kuladi. Keyin esa chuqur oʻyga toladi. Aslida, Matmusa oʻzining soddaligidan “gʻururlanib”, boshqalar uchun “ermak”ka aylangan, bundan zarracha ham oʻngʻaysizlanmaydigan, haqiqatda esa oʻzining fojiasini anglamayotgan, oʻzligini yoʻqotib borayotgan ODAM ekanini tushunib yetadi. Ushbu turkum murakkab va ziddiyatli davrda yashagan shoirning asl haqiqatni aytishda qoʻllagan oʻziga xos badiiy usulidir. Asar tili sodda va ravonligi jihatidan xalq ogʻzaki ijodidagi folklor namunalarini oʻquvchi yodiga solish barobarida, ifoda uslubi (tandir, dutor, charxpalak, lagan, chambarak, paytava, boʻz, chorchoʻp) ham xalqona mutoyiba, hazillarga tayanadi.

Voqealar tizimi xalq ertaklaridagi boshqa obrazlarning xatti-harakatlarini tasvirlash jarayoni bilan davom etadi. Muallif “koʻzi koʻr, qulogʻi kar”, “toʻnini chappa kiymoq”, “men senga tegmayman, sen menga tegma” kabi xalq ichida yurgan ifodalardan foydalangan holda sheʼrga xalqona uslubni singdirish barobarida, xalq merosidan oʻz gʻoyasini ochib berishda mohirona foydalanadi.

“Erkin Vohidovning hozirgi publitsistik hamda siyosiy lirikasida zariflik, tanqidiy ohang, maʼnaviy nuqsonlarga qarshi murosasiz soʻz tobora keskin jaranglamoqda. Bugungi uning sheʼri hayotimizning oʻtkir, achchiq, lekin illatlardan tozalashga xizmat qiladigan haqiqatlarini aytishdan, kishilarni shu haqiqatlar orqali tarbiyalashdan, ularning hissiy qarashlariga faollik bagʻishlashdan aslo choʻchimaydi,...haq soʻz bilan tarbiyalashda u rivoyatdan, latifadan, ochiq shior soʻzdan foydalanmoqda”¹², -deb yozadi Ibrohim Gʻofurov shoirning “Muhabbat”, “Sadoqat” toʻplamlariga yozgan soʻzboshisida. Darhaqiqat, yuqorida tahlil qilingan sheʼrlarda xalq ogʻzaki ijodiga xos badiiy detallar – tush, rivoyat, ertaklardan badiiy vosita sifatida foydalanish usuli ijodkorning maqsadini ochib beruvchi, oʻquvchiga toʻla yetkazuvchi omil boʻlib xizmat qilgan.

Umuman olganda, Erkin Vohidov sheʼriyatida milliy ruhning ifoda usuli ikki xil: xalqona uslub va mumtoz poetik usullar ekani kuzatiladi. Qaysi uslub va usulda yozishidan qatʼi nazar, shoir ijodida teranlik, falsafiylik, betakror badiiyat va milliy ruh uygʻunlikda poetik sintezlanadi.

Soʻnggi fasl esa **“Shoirning milliy ruh suvratlanishida mumtoz ifoda usulidan foydalanish mahorati”** tadqiqiga bagʻishlangan boʻlib, shoir lirikasida milliy ruh suvratlanishida mumtoz ifoda usulining oʻrni quyidagi ijodiy tamoyillar asosida namoyon boʻlgani kuzatiladi.

1. *Poetik mazmuni didaktika asosiga qurish.* Shoir lirikasida didaktik mazmundagi sheʼrlar salmoqli oʻrin egallaydi. Sharq sheʼriyatining oʻziga xos usullaridan biri – adabiyot vositasida oʻquvchini “yaxshilikka undab, yomonlikdan

¹¹Jabborov N. Milliy ruhning betakror ifodasi /“Erkin Vohidov ijodining maʼnaviy haʼtimizdagi ўrni va ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2017. - B. 71.

¹²Gofurov I. “Muhabbatnoma” tўplamiga sўzboʻshi. - Toshkent.1988. -B. 6

Gofurov I. “Sadoqatnoma” tўplamiga sўzboʻshi. - Toshkent.1988. 5B.

qaytarish” hisoblanadi. Shoirning “Yaxshidir achchiq haqiqat”, “Uzoqqa bormadik andisha bilan...”, “Erkak bo‘l”, “So‘z zabarjad”, “Do‘stlaring bo‘lsin”, “Engil ish qidirma” kabi lirik asarlarida ham didaktik mazmun yetakchilik qiladi. Masalan, *Yengil ish qidirma*, *Yengil ish yo‘qdir*, *Jon cheksang yengish bor*, *Yengilish yo‘qdir*. Darhaqiqat, yengil, oson bitadigan ish insonga zavq, qalbgga huzur berolmasligi, jon chekib, mashaqqat bilan erishilgan maqsad g‘alabaga eltishi, bu yo‘lda “engilish yo‘q” ekanligi haqida kichik hajmli she’rda katta haqiqat bayon etilmoqda. Ayniqsa, to‘rtlikdagi tajnis uchun asos bo‘lgan birikma va so‘z shakldoshligi murakkab tajnisni yuzaga keltirganligi bilan o‘zbek tilining naqadar boy, serjilo imkoniyatlari borligini isbotlab beradi.

Qalbgga istarsan shifo gar, bo‘l yomon so‘zdan yiroq,

Karvalol ichmoq kerakmas, **kar va lol** bo‘lmoq kerak.

Ushbu baytda inson qalbini pokiza saqlashi uchun, xastalanmasligi uchun yomon so‘zdan yiroq bo‘lishi zarurligi haqidagi dono fikr ikkinchi misradagi tajnis bilan baytning tugal mazmunini yuzaga keltirmoqda. Xalq donishmandligi insonning mukammallikka erishish yo‘lida jiddu jahd qilib, atrofdagi yomonliklardan ko‘zni ko‘r, quloqni kar qila olishi, buning uchun esa g‘ayriaxloqiy ishlar va gaplarga nisbatan ko‘rmasligi, ularni eshitmaslik darajasida qalb hamisha Haq yodi bilan mashg‘ul bo‘lmog‘i haqida ta’lim beradi.

“O‘zimga savol” she’ri mustazod janrida yozilgan bo‘lib, mazmun jihatdan didaktik xarakterga ega. Shoir ijodiga xos xususiyatlardan biri ham shu – o‘quvchiga hayot kitobidan dars berib, abadiylik qarshisida lahzalarga teng umr ne‘matini go‘zal va manfaatli o‘tkazish borasida o‘quvchiga otalarcha nasihatlar qilish bilan bir qatorda achchiq tanbehlar bilan ko‘z ochib, dunyoning foniyligini unutmaslikka, aziz va mukarramlilik sifatiga xos bo‘lgan harakatlar qilishga undaydi. Erkin Vohidov mumtoz adabiyotdagi shohbaytlarni ijodining mazmuniga singdirib yuboradi, milliy ibora va qochirimlarni noyob topilma sifatida qo‘llab, she’rlarining xalqchilik darajasini ko‘taradi.

Ijodkorning so‘nggi yillar g‘azaliyotida keksa donishmand obrazi yorqin ifodalangan. Shoirning yigitlik va qarilikni solishtirish usulidagi nasihatimiz she’rlari uning “Orzuli dunyo” to‘plamida keltirilgan. Xuddi shu mavzuga Navoiy ham o‘zining keksalik davrlarida tez-tez murojaat etgan. Odamzod yoshi o‘tganidan so‘ng uning hayot tajribasi oshadi va u nasihat berish bosqichiga etadi, shoir bunday holatni she’rga solib, o‘y-xayollarin band etgan fikrlarni badiiy obrazlar vositasida she’r san‘atida qorib, o‘quvchiga taqdim etadi

